



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd August, 2025

MAVZU: ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TEZKOR BO'LINMALARI TOMONIDAN AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA SODIR ETILADIGAN EKSTREMIZM BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Hoshimov Ulug'bek Muhiddin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Oliy ta'limdan keyingi
ta'lim fakulteti tayanch doktorantura doktoranti, kapitan

Zamonaviy jamiyatda, globallashuv va “axborot jamiyati” shakllanishi sharoitida ekstremizm mamlakatlarning davlat yaxlitligiga tahdid soladigan va xalqaro vaziyatni beqarorlashtirishga qodir bo'lgan mustaqil omil sifatida harakat qiladi. Shubhali xarakterdagi internet saytlaridan foydalanishga cheklovlar o'rnatish va ularni keyinchalik bloklash masalasi mamlakatimizda har qachongidan ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Axborot ekstremizmiga qarshi kurashda yuzaga keladigan muammolar qonunchilik darajasida ham, xalqaro miqyosda ham hal etilishi zarur va kompleks yondashuv ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin materiallar va usullarni qo'llashni talab etadi.

Ushbu ijtimoiy resurslardan terrorchilar va ekstremistlar tomonidan tashviqot olib borish, yoshlarni o'z safiga jalb qilish, terrorchilik xurujlarini tashkil etish va razvedka maqsadlarida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Ekstremistik materiallarning internet ijtimoiy tarmoqlari orqali tarqalishini fosh etishda internetning tarqalishiga tasir qiluvchi internet xususiyatlarini alohida ta'kidlash lozim:

- Internet - axborotni saqlash vositasi;
- Internet axborot tarqatish vositasidir;
- Internet - turli geografiyaga ega bo'lgan tarmoqlar to'plami;
- Internet foydalanuvchilari ma'lumotlarga kirishda yoki uni joylashtirishda anonim qolishi;
- Internetda katta hajmdagi ma'lumotlar mavjud bo'lib, bu nazoratni qo'lda amalga oshirishni deyarli imkonsiz ekanligi va texnik imkoniyatlar hamda vositalar yordamida uni murakkablashtirilishi.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd August, 2025

Internet ijtimoiy tarmoqlarining yoshlar uchun xavfli ekanligi borasida rus olimlaridan D.A.Bogdanova. va A.A.Fedoseevlar yoshlar internet ijtimoiy tarmoqlaridan eng ko'p foydalanuvchilar ekanligi, ular bu tarmoqlardan ishonchli bo'limgan ma'lumotlarni olishlari natijasida yod g'oyalar ta'siriga tez tushib qolishayotgnaligi bu esa kelajak avlodning zavoliga aylanib borayotganligi to'g'risida ta'kidlashgan. Yana bir qator olimlardan M.A.Temirxanov va A.X.Kankulovlar ijtimoiy tarmoqlar va messengerlarda ro'yxatdan o'tishni amalga oshirayotgan shaxslar davlat tomonidan to'liq nazorat qilishning imkoniyati yo'q, bu esa ekstremistik xarakterdagi jinoiy harakatlarni jazosiz qolishiga imkon bermoqda deb hisoblashgan.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida axborot (raqamli) texnologiyalari ekstremistik va terroristik tashkilotlar, shuningdek, jinoyat dunyosi tomonidan shaxslarni noqonuniy faoliyatga masofadan jalb etish yoki ular bilan doimiy aloqada bo'lish uchun faol qo'llanilmoqda.

Yuqoridagi omillar esa aynan mazkur turdag'i jinoyatlarni fosh qilishda quyidagi bir qator muammolarni yuzaga keltiradi:

- ekstremistik materiallarni internetga joylashtirish uchun taqdim etgan shaxsni aniqlash;
- ekstremistik materiallarni internetga joylashtirgan shaxsni aniqlash;
- ekstremistik materiallarni joylashtirgan shaxsga yoki allaqachon joylashtirilgan ekstremistik ma'lumotlarni joylashtirish hamda olib tashlashning oldini olish maqsadida sayt egasiga tasir ko'rsatish kabi holatlarni alohida ta'kidlash mumkin.

Bu birgina taqiqlangan mazmundagi materiallarni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishdagi muammolar bo'lib, undan tashqari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan faol ekstremistik tashviqotlar bilan bog'liq holatlarni aniqlash dolzarbligicha qolmoqda.

Bundan tashqari, ekstremistik mazmundagi materiallar nafaqat veb-saytlarga joylashtirilishi, balki elektron pochta, maqolalarga sharhlar, bloglar va boshqalar orqali ham tarqatilishi mumkin. Jinoyat subyektining texnologiya sohasida malakali ekanligi va foydalanilgan zamонави vositalar, axborot texnologiyalari orqali sodir etilayotgan ekstremizm bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarni fosh etilmasdan qolishiga olib kelmoqda.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd August, 2025

Olimlardan G.I.Gadjimurodova o'z maqolalarida "hozirgi vaqtda World Wide Web o'z faoliyatida ekstremistik va terroristik usullardan foydalanadigan deyarli barcha turdag'i tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Ekstremistik materiallarni o'z ichiga olgan veb-saytlar soni yetti mingdan ortiq, jumladan, bir yuz elliqdan ortiq rus tilidagilar va ularning soni ortib bormoqda" deya ta'kidlagan. Shuningdek axborot texnologiya va ekstremizmga qarshi kurash borasida huquqshunoslar Stukalov Vyacheslav Vladimirovich va Zaporojes Yekaterina Vladimirovnalar axborot texnologiyalari orqali sodir etilayotgan ekstremizmga qarshi kurashish choralarini samarali bo'lishi uchun uchta asosiy manba sifatida 1) Internetda ekstremizmga qarshi kurashishning huquqiy asoslari; 2) tezkor bo'linmalar xodimlarining malakasi; 3) zaruriy texnik ta'minot kabi omillar zarurligini takidlashadi.

Professorlar G.I.Gadjimurodova, Stukalov Vyacheslav Vladimirovich va Zaporojes Yekaterina Vladimirovnalarning mulohazalari va yuqoridagi omillarni fikrlarini hisobga olgan holda axborot texnologiyasi va internetda ekstremizmga qarshi samarali kurashni tashkil etish vositasi sifatida quyidagi tadbirlarni alohida takidlashni lozim deb hisoblaymiz ya'ni:

- axborot internet-resurslarini joylashtirish va ulardan foydalanishni nazorat qilish bo'yicha amaldagi qonunchilikni takomillashtirish;
- ma'lumotni joylashtirgan shaxsning anonimligi, joylashtirilgan ma'lumotlarni kuzatishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar tufayli texnik imkoniyatlarni yaxshilash va joylashtirilgan ma'lumotlarni monitoring qilish hamda qiziqish uyg'otgan foydalanuvchilarining shaxsini aniqlash ehtiyojlariga javob beradigan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish;
- huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining turli internet-resurslar (vebsaytlar, bloglar va h.k.) provayderlari va yaratuvchilari o'rtaida joylashtirilgan ekstremistik materiallarni blokirovka qilish bo'yicha birgalikdagi ishlarni tashkil etish borasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda takomillashtirish;
- jamiyatda, ayniqsa, yoshlar o'rtaida ma'rifiy profilaktika ishlarni olib borish;
- ommaviy axborot vositalari orqali ekstremizmni qabul qilmaslik va bag'rikenglikni singdirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarni tashkil etish;
- faqat internetdagi vaziyatni kuzatish va global tarmoqdagi ekstremizmga qarshi kurashishga bag'ishlangan mustaqil, yaxshi jihozlangan ixtisoslashtirilgan tarkibiy



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd August, 2025

bo'linmani yaratish. Ayni paytda bu kabi muammolarga qarshi kurashish uchun barcha vazirliklar, idoralar va jamoatchilikni birlashtirish kabi tarmoqlarni takomillashtirish lozim.

Ayni kundagi qonunchilikka asosan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi 707-sон qarori bilan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida tarqatilishi taqiqlangan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan butunjahon internet tarmog'inining veb-saytlariga va (yoki) veb-saytlarining sahifalariga kirishni cheklash tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan.

Unga ko'ra veb-sayt yoki veb-sayt sahifasi, agar ularda noqonuniy maqsadlarda foydalanimayotgan ma'lumotlar bo'lsa, Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan bloklanadi . Bloklash jarayoni uch bosqichni o'z ichiga oladi. 1-bosqich Taqiqlangan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan internet-resurslarni aniqlash. Ommaviy kommunikatsiyalar sohasidagi monitoring markazi tomonidan monitoring o'tkazish va kelib tushgan murojaatlar asosida taqiqlangan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan manbalar asosida xulosa tayyorlanadi.

2-bosqich Internet-resursning identifikatsiya ma'lumotlarini maxsus reestrga kiritish. Noyob domen nomlari, veb-sayt sahifasi ko'rsatkichlari va taqiqlangan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan resursslarning tarmoq manzillari (identifikatsiya ma'lumotlari) tegishli reestrga kiritiladi.

3-bosqich Axborot resursiga kirishni cheklash bo'lib unda ma'lumotlar reestrga kiritilganidan keyin 12 soat ichida tegishli choralar ko'rilgan holda amalga oshiriladi. Shundan so'ng, bloklangan resurslarga kiruvchi foydalanuvchilar ushbu resursning reestrga kiritilganligi va u bilan bog'lanish uchun aloqa ma'lumotlari haqida ma'lumot xabarini ko'radilar.

Ammo bu holat o'z o'rnida internet ijtimoiy tarmoqlari orqali sodir etilayotgan ekstremizm bilan bog'liq bo'lgan taqiqlangan kontentlarni tarqalishini oldini olish va ularning manbalarini aniqlashni yetarli darajada cheklayolmaydi.

Shuningdek xalqaro tajriba misolida Yaponiya turli mintaqalardagi ma'lumotlarni birlashtiradigan va Internet-trafikni tahlil qilish uchun algoritmlardan foydalananadigan milliy kiberjinoyatchilik markazini yaratdi mazkur markaz tomonidan nafaqat ichki balki tashqi internet trafiklarini sarflanishi orqali kuzatish imkonini beruvchi tizimda faoliyat olib bormoqda. Bu o'z o'rnida butun dunyo



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd August, 2025

mamlakatlari tomonidan e'tirof etilgan tizim hisoblanib, zamonaviy vositalardan xususan foydalanuvchining IP manzilini yashirish uchun mo'ljallangan VPN qurilmalaridan foydalanilgan taqdirda ham obyektning faolligini kuzatib turish imkoniyatini beradi. Ammo tizim faqatgina maxsus xizmatlar tomonidan foydalanilganligi sababli, uning ishslash tizimiga doir bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlar oshkor qilinmagan.

Shuni aytish lozimki, davlatlar anonim jinoyatchilarni aniqlashda texnologiya, qonun va xalqaro hamkorlikni uyg'unlashtirishi lozim. Biroq, barcha choralar inson huquqlari va maxfiylikni himoya qilgan holda amalga oshirilishi lozim. Anonim profillardan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlar uchun aniq jazolar belgilash, bundan tashqari real identifikatsiya tizimini joriy etish ya'ni ijtimoiy tarmoqlarga ro'yxatdan o'tishda milliy IP yoki passport raqami kiritishni majburiy qilish (Janubiy Koreya va Xitoy tajribasi asosida). Internet-provayderlar (Uzmobile, Ucell, Beeline va boshqa) foydalanuvchilarning IP manzillari, kirish vaqt va geolokatsiya ma'lumotlarini 1-6 oy saqlash majburiyatini yuklash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. T.M. Shogenov "О некоторых вопросах распространения экстремистских материалов с использованием сети Интернет" // <https://cyberleninka.ru/article/n/onekotoryh-voprosah-rasprostraneniya-ekstremistskih-materialov-s-ispolzovaniem-seti-internet> //2014-y. (murojaat sanasi:12.05.2025)
2. Bogdanova.D.A. va A.A.Fedoseev "Внимание: Интернет" // <https://cyberleninka.ru/article/n/vnimanie-internet> // Jurnal "Problemy obrazavaniya i Otkritvoe obrazavaniya"// 2010-y, №2 B-90-98.(murojaat sanasi:12.05.2025)
3. M.A.Temirxanov va A.X.Kankulov "Информационные Технологии, Используемые В Экстремизме Как Проблема Современного Общества" // <https://cyberleninka.ru/article/n/informatsionnye-tehnologii-ispolzuemye-v-ekstremizme-kak-problema-sovremennoego-obschestva>// Jurnal "Agrarnoy i zemelnuy pravo"// 2023-y. №2 B-171-178. (murojaat sanasi:12.05.2025)
4. Gadjimurodova G.I "Противодействие Различным Видам Экстремизма В Эпоху Информационных Технологий И Глобализации"//



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd August, 2025

<https://cyberleninka.ru/article/n/informatsionnye-tehnologii-i-protivodeystvie-razlichnym-vidam-ekstremizma-v-epohu-globalizatsii> // Jurnal “Nauchniy rezultat. Sotsiologiya i uprovlenie”// T-7. №2. B-40-48 (murojaat sanasi:12.05.2025)

5. Stukalov.V.V va Zaporojes.E.V “Проблемы противодействия экстремизму в сети Интернет”/ <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-protivodeystviya-ekstremizmu-v-seti-internet-1> // Jurnal “Объекты и права”// 2016–у B-3. (1-7). (murojaat sanasi:12.05.2025).